XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-fevral VII-5-14-8-118-K/25 Uzun tumani

Uzun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-, 429- va 437-moddalariga asosan Surxondaryo viloyatida 2025-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsient qo‘llash va tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i Sh.Qosimovning hisoboti hamda 2025-yil 4-yanvardagi 18-00006-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Uzun tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari (B.Baratov), Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i (Sh.Qosimov)ga:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatda bo‘lishini nazorat qilish;

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.metr uchun mutloq miqdori viloyat markazlarida 2 200 000 so‘m va boshqa shaharlarda va qishloq joylarda 1 300 000 so‘m belgilanganligi minimal qiymatda bo‘lishi yuzasidan “Bobotog‘ tongi” gazetasi bilan hamkorlikda keng ommaga taqdim etish;

minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qishloq joylarida keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashi belgilagan minimal qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, 0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsient kiritish;

yuridik shaxslar tomonidan mavjud mol-mulklari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

2025-yil 1-fevralga qadar soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlash va e’tirof etish maqsadida 2025-yil davomida mol-mulk soliqlarini belgilangan tartibda va muddatda to‘lashda faol bo‘lgan har bir tuman (shahar)dan kamida 3 tadan yuridik shaxslarni moddiy va ma’naviy tomonlama rag‘batlantirish takliflarini kiritish;

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsienti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Uzun tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari (B.Baratov), Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i (Sh.Qosimov)ga:

yer solig‘ining amaldagi stavkalari yuridik shaxslar 1 gektarga 35,2 mln.so‘m va jismoniy shaxslar 1 kv.mga 330,0 so‘m, yuridik shaxslar uchun 1,30-1,53 koeffitsentgacha va jismoniy shaxslar 1,2-1,5 koeffitsentgacha indeksatsiya qilinishi qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan “Bobotog‘ tongi” gazetasi tahririyati davlat korxonasi orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini **5 (besh) kun** ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

2025-yil yanvar oyida 2024-yil davomida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer soliqlarini belgilangan muddatda va miqdorda faollik bilan to‘lagan viloyatdagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarni mahalliy budjet hisobidan moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish to‘g‘risida tegishli xalq deputatlari tuman Kengashiga takliflarini kiritish;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

har chorak yakunida yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida hamda yuridik shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig‘i va undirilgan boshqa soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklansin.

6. **Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i (Sh.Qosimov), Davlat kadastr palatasi tuman filiali boshlig‘i (S.Xujamkulov)larga**

Tumandagi lalmi-yaylov zonada joylashgan jismoniy shaxslarning yerlari uchun ularning hujjatlarini o‘rgangan holda, soliq koeffitsientini soliq kodeksida belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashi belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,3 koeffitsient qo‘llash choralarini ko‘rsin (bundan soliq kodeksining 429-moddasi, o‘n beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno)

7. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari hamda “Bobotog‘ tongi” gazetasi tahririyati rahbari (I.Bobokalonov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat, shahar va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi  SAFAROVA DILOROM SHAYDILOVNA

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-5-14-8-118-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Uzun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

№	Mahalla nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Bahoriston MFY	1	45 760 000	0,8	295,68
2	Beshkapa MFY	0,9	41 184 000	0,8	295,68
3	Bobotog‘ MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
4	Chaqar MFY	1	45 760 000	0,8	295,68
5	Chinor MFY	0,8	36 608 000	0,7	258,72
6	Dexqon MFY	0,75	34 320 000	0,7	258,72
7	Dug‘ob MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
8	Do‘stlik MFY	0,9	41 184 000	0,9	332,64
9	Erkinlik MFY	1	45 760 000	0,8	295,68
10	Fayzobod MFY	0,75	34 320 000	0,9	332,64
11	Surxon MFY	0,75	34 320 000	0,8	295,68
12	Fayzova MFY	0,75	34 320 000	0,8	295,68
13	Guliston MFY	0,75	34 320 000	0,7	258,72
14	Istiqlol MFY	0,9	41 184 000	0,7	258,72
15	Jiydabuloq MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
16	Qarashik MFY	0,9	41 184 000	0,9	332,64

17	Kichik joncheka MFY	1	45 760 000	0,9	332,64
18	Madaniy turmush MFY	0,75	34 320 000	0,8	295,68
19	Malandiyon MFY	1	45 760 000	1	369,6
20	Mehnat MFY	1	45 760 000	1	369,6
21	Mustaqillik MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
22	Mustaqillikning 22 yilligi MFY	0,72	32 947 200	0,7	258,72
23	Navro‘z MFY	1	45 760 000	0,7	258,72
24	Nurli kelajak MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
25	Obizarang MFY	1	45 760 000	1	369,6
26	Obod yurt MFY	0,8	36 608 000	0,7	258,72
27	Oq ostona MFY	0,8	36 608 000	0,7	258,72
28	Oqmachit MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
29	Paxlavon MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
30	Saxovat MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
31	Serharakat MFY	0,8	36 608 000	0,7	258,72
32	Tojikobod MFY	0,9	41 184 000	0,7	258,72
33	Toltugay MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
34	Tomchi MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
35	Ulanqul MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
36	O‘rmonchi MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
37	O‘zbekiston MFY	1	45 760 000	1	369,6
38	Uzunqishlok MFY	0,9	41 184 000	0,8	295,68
39	Xatib Qaxramon MFY	0,9	41 184 000	0,7	258,72
40	Xo‘jaqulsin MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
41	Xursand MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
42	Yangi kuch MFY	1	45 760 000	0,8	295,68
43	Yangi obod MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72

44	Yangi xayot MFY	0,9	41 184 000	0,8	295,68
45	Yangi ro‘zg‘or MFY	1	45 760 000	0,9	332,64
46	Ittifoq MFY	1	45 760 000	0,9	332,64
47	Yangi shaxar MFY	1	45 760 000	0,9	332,64
48	Yangi yo‘l MFY	1	45 760 000	0,9	332,64
49	Yoshlik MFY	1	45 760 000	1	369,6
50	Zarkamar MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72
51	Nurafshon MFY	0,7	32 032 000	0,7	258,72